



Rustam DUSHANOV,
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti professori, DSc
E-mail:turgunov3103@gmail.com

ISSUES OF IMPROVING THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF THE TEACHER IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Annotation

There are noticed about specific qualities of increasing the psychological competence of teacher at the system military (militarian) higher education and thought-meditations about its developing factors in this story.

Key words: Psychological competence, pedagogical erudition, striving to object, practical think, pedagogical-psychological tact, professional observation, communication, psychological-pedagogical reflection.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье были изложены мнения и взгляды в целях повышения специфических качеств и факторов влияющих на развития психолого-педагогической компетентности преподавателя в выше учебной системе

Ключевые слова: Психолого-педагогическая компетентность, педагогическая эрудиция, мыслить иррационально, педагогическо – психологический такт, профессиональная наблюдательность, ком-муникативность, педагогическо – психологическая рефлексия.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVChINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLAShTIRISH MASALALARI

Annotasiya

Maqolada oliv ta'lism tizimida o'qituvchining pedagogik-psixologik kopetentligini oshirishning o'ziga xos sifatlari va uni rivojlantirish omillariga oid fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zları: Psixologik va pedagogik kompetentlik, pedagogik erudisiya, maqsadga intilish, amaliy fikrlash, pedagogik-psixologik takt, kasbiy kuzatuvchanlik, kommunikativlik, psixologik-pedagogik refleksiya.

Kirish. XXI asrga kelib ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosidagi huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurilishining bosh tamoyili sifatida qabul qilinmoqda.

Ijtimoiy jamiyatda pedagogning tutgan o'rni shu bilan belgilanadi, u shaxsn shakllantirish, rivojlantirish, tarbiyalash, ma'lumotli qilish va o'qitish (ta'lism berish) kabi murakkab vazifani bajaradi.

Shaxs turli omillar ta'sirida shakllanadi. Tarbiya esa shaxsni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi omillardan biridir. Tarbiyachi turli vositalar va usullar orqali muayyan maqsadni ko'zlagan holda tarbiyalanuvchilarda ma'lum ijobji xislatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Insoniyat jamiyatining turli bosqichlarida ta'limg tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tatbiq qilish jarayonida pedagogik – psixologik qarashlar paydo bo'la boshlaydi.

Yoshlarga ta'limg tarbiya berishning asosiy maqsadi barkamol komil insonni shakllantirishdir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'limg to'g'risida»gi qonunida (2020y) ta'limgining davlatimiz ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor yo'nalish deb e'lon qilinishi pedagog zimmasiga juda katta mas'uliyat, ulug'vor vazifalarni yukladi. Jumladan, boy ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklanishi ularni hozirgi zamon ruhi, talabi bilan uyg'unlashtirish, faqat

shaxsiy, milliy manfaat kasb etib qolmasdan, umumjahon ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilmoqda.

Shu ma'noda, ta'limg-tarbiya masalasi insoniyat taraqqiyotida hayot mamot masalasi sifatida qaralib keligan. Xavfsizlik masalasi ham ta'limg-tarbiyaga bog'liq. Shu bois dunyo mamlakatlari bu masalaga milliy masala sifatida qarab kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bir qator olimlar [1] o'qituvchining eng muhim kasbiy psixologik sifatlari ro'yxatini pedagogik erudisiya, maqsadga intilish, amaliy fikrlash, pedagogik-psixologik takt, kasbiy kuzatuvchanlik, tinglay bilish qobiliyati, turli nostandard vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish, psixologik bashorat qilish va psixologik-pedagogik refleksiya kabilalar bilan to'ldiradi. O'qituvchining mazkur sifatlari unda pedagogik faoliyatga nisbatan psixologik va pedagogik kompetentlikka ega bo'lish bilan birga uyg'un holda namoyon bo'ladi.

Ta'limg – ta'limg oluvchilarga nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar berish, ularda umumta'limg va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, bilish qobiliyatini va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli jarayon hisoblanadi.

Tarbiya–muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, tarbiyalanuvchilarning ongi, xulq-avtori va dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli jarayon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ta'limg tarbiya bu-ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham

belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lism tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib, ko'zlagan oly maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Mamlakatimizda mustaqillik bois ta'lism tarbiya masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ta'limgan milliy modeli yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagidagi ma'rurasida «Biz ta'lism va tarbiya tizimining barcha bo'g'inalri faoliyatini bugungi zamon talablarasi asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilalimiz» [7] degan edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lism tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning yeng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi, desak, hyech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Bizning yangi avlodimiz, bilmilim, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberal-lashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnqa toptirishning hal qiluvchi harakatlantrivchi kuchiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldag'i «Oliy ta'limgan keyingi ta'lism tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PF-4958-ton farmoni ham fikrimizning yaqqol dالilidir.

Bugungi kunda ta'lism tizimini rivojlantrish, kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlari samaradorligini oshirishning psixologik omillariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur murakkab va muhim vazifalarni amalga oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, ta'lism oluvchilar jamoasini boshqarish va ularga psixologik ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga bog'liq. Chunki «... pedagog va professor – o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lism olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur» [6].

Shu ma'noda, mutaxassisning pedagogik-psixologik kompetentligi shaxsnинг o'ziga xos individual-psixologik tuzilmasi bo'lib, u «inson-inson» tizimidagi kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. U kognitiv (bilish) va amaliy tarkibiy qismlar, psixologik bilimlar, kasbiy tafakkur, shaxslararo aloqa o'rnatishtirish va psixologik ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma hamda malakalardan tashkil topgan.

Amaliy psixologiya lug'atida kompetentlik «chuqu bilimga asoslanganlik va shaxslararo munosabat tizimida atrofdagi insonlar bilan samarali munosabatda bo'lish qobiliyat» - deb ta'riflanadi [4].

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchida refleksivlik, kommunikativlik va hamkorlik qilish kabi shaxsiy sifatlar muhim va zarurdir [5].

Psixologik kompetentlikning tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, ichki (subyektiv) va tashqi (obyektiv) tuzilma-larinining yaxlit tizimini tashkil etadi.

Tahsil va natijalar. O'qituvchining psixologik va pedagogik kompetentligi:

har bir ta'lism oluvchining individual-psixologik xususiyatlari, temperamenti, qobiliyati, xarakteriga xos kuchli va kuchsiz tomonlari, tarbiyalanganlik darajasi, faoliyatagi yutuq va kamchiliklari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;

jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshi bilishi, ta'lism oluvchi va ta'lism beruvchi munosabatlarining psixologik xususiyatlari to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi;

shaxsga ta'lism berishning eng qulay va zamonaliviy metodlaridan xabardor bo'lish, ulardan samarali foydalana

olish, ta'lism jarayoniga yangi innovasion texnologiyalarini tadbiq etish borasida malakaga ega bo'lish, o'z faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini psixologik tahlil qilish, o'z faoliyati sifati va samaradorligini oshirish, o'zini-o'zi nazorat qilish, kasbiy bilimlarini oshirish hamda o'z ustida ishslashning eng qulay usullarini yuqori darajada o'zlashtira olishni taqozo etadi.

Pedagogning psixologik kopetentligi faqatgina uning ta'lism oluvchilarga munosabatidagina ifodalaniб qolmay, shaxsiy pedagogik faoliyatini tashkil etishda ham yaqqol namoyon bo'ladi. O'z psixologik xususiyatlarini bilmaslik tufayli, pedagog hamkasblari tajribasidan nusxa ko'chiradi, ularga taqlid qila boshlaysi.

Shu ma'noda, ta'lism jarayonida o'qituvchining psixologik va pedagogik kopetentligini oshirishda quyidagi usullardan foydalananish maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

o'qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirish, psixik jarayonlari (kasbiy xotira, diqqat, sezgi, mantiqiy tafakkur va boshq.)ni rivojlantrish, kasbiy bilim va qobiliyatlarini hamda ko'nikmalarini shakllantirish, zo'riqishlardan xalos bo'lishning psixologik usullarini o'zlashtirish masalasida ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish;

kasbiy faoliyatga aloqador masalalar (o'zlashtirishning sustligi, guruhdagi nizoli vaziyatlar)ni hamkorlikda hal etish maqsadida psixologik vaziyatlarni tahlil qilish;

pedagogning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida «yosh pedagoglar mahoratini oshirish maktabi»da o'qish;

o'qituvchining kasbiy faoliyatida o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishi uchun muhim bo'lgan shaxsiy sifatlar (o'zining pedagogik faoliyatini tahlil qilish, "aqliy trening", aqliy xujum" kabi ko'nikmalar)ni takomillashtirish.

Psixologik kompetentning rivojlanishida yetakchi omillardan biri birinchidan, pedagogning mutaxassis sifatida o'zini - o'zi shakllantirishi bo'lsa, ikkinchidan, shaxs sifatida esa o'zini-o'zi anglashidir.

O'qituvchining psixologik va pedagogik kopetentligi bir maromda emas, balki butun kasbiy faoliyat jarayonida shakllanib boradi. Mazkur dinamik jarayonni monitor qilish, uni adekvakt (mos) baholash, rivojlanishini va o'qituvchi shaxsinining taraqqiyotini bashorat qilish imkonini beradi. O'qituvchining shaxsiy-kasbiy sifatlari uning psixologik kompetentligi bilan uyg'unlashib ketadi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini biliishlari lozim.

Pedagoglik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalaniди.

O'qituvchining kasbiy professiogrammasi quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

o'qituvchi shaxsinining psixologik xususiyatlari;

o'qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;

maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni;

ixtisosligiga oid uslubiy tayyorgarlikning mazmuni.

O'z navbatida o'qituvchi shaxsinining psixologik kompetentlari quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi. Jumladan:

G'oyaviy sohada: ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarini chuqu tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik.

Pedagoglik kasbi sohasida: ta'lism oluvchilarni hurmat qilish va ular bilan ishslashga bo'lgan motivasiya, pedagogik faoliyatiga bo'lgan qiziqish, ruhiy-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylilik, samimiylik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish; vazminlik; o'zini tutish; kasbiy layoqatlilik.

Kognitiv (bilish) sohasiga esa keng ilmiy saviya, ma'nnaviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish; pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish kiradi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mayjud bo'lmog'i lozim:

Bilish qobiliyati;
O'quv materiallarini tushuntira olish qobiliyati;
Kuzatuvchanlik qobiliyati;
Nutq qobiliyati;
Tashkilotchilik qobiliyati;
Obro' orttira olish qobiliyati;
To'g'ri muomala qila olish qobiliyati;
Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati;
Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

Shu ma'noda o'qituvchining psixologik va pedagogik kompetentligini shakllantirish maqsadida turli psixodiagnostik usullardan foydalanish lozim. Psixodiagnostik ma'lumotlardan

olning natijalarga ko'ra o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyat talablariga qanday moslashib borayotganligini anglashi va shunga muvofiq tarzda o'zining pedagogik qobiliyatini yanada oshirishi zarur.

O'qituvchining obru e'tibori avvalo o'z kasbiga bo'lgan sadoqatida namoyon bo'ladi. Shundagina o'qituvchi o'z amaliy faoliyati bilan ta'lim oluvchilarga ibrat bo'la oladi hamda ularni o'ziga nisbatan ishonch uyg'otadi. Bu fazilatlar yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligida muhim omil hisoblanadi. Zero, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini uyg'otish, Vatanni sajdah kabi ardoqlash, yon atrofga daxldorlik hissi bilan yashashga o'rgatish har bir o'qituvchining muqaddas burchidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi» [6].

ADABIYOTLAR

1. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyasi. Toshkent. 2011y. 66 b.
2. Azizzuhayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. ToshDPU bosmaxonasi. Toshkent 2013. 36 b.
3. Давлетшин М.Г. Национальная программа подготовки кадров и основные задачи психологической науки. – Т.,1998. – С. 3-7.
4. Карпенко Л.В. Психология. Словарь. М., 2004.
5. Лукъянов Н. И. Как подготовить профессанального педагога. М. 2012. С.17.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.,2017. 45 – b.
7. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» nomli ma'ruzasi T., 2016 yil 7 dekabr.
8. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М., Международный гуманитарный фонд. “Знание”. 2006. – 308. С.15.
9. Shodiyeva. K. Bo'lajak o'qituvchining innovation faoliyatini shakllantirish. T.: «Istiqlol» 2016. – 73 b.